

ZAMONAVIY O'ZBEK OILASIDA SOG'LOM TURMUSH MADANIYATINI
SHAKLLANTIRISHNING BIOETIK MASALALARINING IJTIMOY-FALSAFIY TAXLILI.

Kodirova Gulchexra Muminovna

*Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasii
o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek oilasining sog'lom turmush tarxi va uning biortik tahlili haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Ma'naviy sog'lom, ma'suliyat, vazifa, muhit, qadriyat, oila, psixologiya, bola, axloq.*

Mamlakatimizda jismoniy sog'lom, ma'naviy yetuk, har tomonlama uyg'un va barkamol rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish vazifasini izchil davom ettirish mas'uliyati, eng avvalo, oila zimmasidadir. Ma'naviy-ruhiy sog'lom bolaning dunyoga kelishi masalasiga sog'lom va ahil oila mehnatining samarasi sifatida qarab, oilada o'zaro hurmat va mehr-muhabbat, yuksak axloqiy va ma'naviy qadriyatlar muhitini shakllantirish bugungi kunda har birimizning vazifamiz hisoblanadi. Bu vazifani bajarishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'рни judayam katta.

Maktabgacha ta'lim, umumta'lim, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim muassasalarida, korxonalar, tashkilot va boshqa turdagi barcha muassasalarda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish uchun zamonaviy moddiy-texnika bazasini shakllantirish." Hozirgi kunda zararli odatlarning oilaning psixologik tomondan rivojlanishiga qanchalik ta'sir etishi masalasida juda ko'plab izlanishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu izlanishlar shuni ko'rsatadi, oilalardagi sog'lom turmush tarziga rioya qilmaslik yoki ushbu muammoning jadallashib borishi asosan oiladagi er-xotin o'rtasidagi psixologik muhitning buzilganligidan ham kelib chiqmoqda. Oilaviy munosabatlarning asosiy mazmun mohiyatini tibbiyot psixologiyasi va sog'lom turmush tarzi asoslarida atroflicha fikr yuritilgan bo'lib, ... G. Selyening stress va adaptatsiya sindromi haqidagi, Z. Freydning psixosomatik tibbiyot va psixoanalitik ta'limotlarga, shuningdek, salomatlikka nisbatan neogippokratik qarash, ... rivojlanib bormoqda.

Oilaviy munosabatlarning me'yoriy sog'lom munosabatlarning o'rnatilishi himoya mexanizmlariga bog'liq. Himoya mexanizmi - bu shaxsdagi psixik buzilishining oldini olish vositasi. Biroq, himoya mexanizmlari bir xil emas. Bir tomondan ular barqarorlashadi, ya'ni odamning o'zi bilan munosabatlarini o'rnatadi, boshqa tomondan tashqi dunyo bilan munosabatlarni buzishi mumkin.

Oila to'g'risidagi qonun hujjatlarining vazifalari oilani mustahkamlashdan, oilaviy munosabatlarni o'zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir biriga yordam

berish hamda oila oldida uning barcha a'zolarining mas'ulligi hissi asosida qurilishidan, biron- bir shaxning oila masalalariga o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'ymaslikdan, oila a'zolari o'z huquqlarini to'sqinliksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini taminlashdan iboratdir.

Oila uni xarakterlovchi turli mezonlarga ko'ra quyidagilarga farqlanadi:

- 1) To'liqligiga ko'ra: to'liq, noto'liq, qayta tuzilgan (2- nikoh) oilalar.
- 2) Bo'ginlar soniga ko'ra: nuklear (ota ona va bolalardan iborat) va ko'p nomli (ikki va undan ortiq avloddan iborat oila a'zolari bilan birga yashovchi) oila.
- 3) Bolalar soniga ko'ra: farzandsiz, bir bolali, ikki bolali, uch- to'rt bolali, besh va undan ortiq bolali oilalar.
- 4) Er-xotinning ijtimoiy kelinb chiqishiga ko'ra: ishchilar, dehqonlar, xizmatchilar, ziyolilar, aralash tipdagi oilalar kiradi.
- 5) Oilaning yoshiga ko'ra: yosh oila (bir yilgacha, uch- besh yillik, olti -o'n yillik turmush tajribasiga ega bo'lgan oilalar), o'rta yoshdagi oila, yetuk oila (qariyalar oilasi) kabi oilalar.
- 6) Er- xotinning ma'lumot saviyasiga ko'ra: oliy ma'lumotli, o'rta maxsus, o'rta, tugatilmagan o'rta, maxsus yordamchi maktab ma'lumotiga va turli saviyadagi ma'lumotlarda ega bo'lgan erxotinlardan tashkil topgan oila.
- 7) Er- xotinning ota-onasi oilasining moddiy ta'minlanganlik darajasiga ko'ra: qudalarning bir-biriga mos yoki ular o'rtasida katta tafovut mavjudligi bo'yicha bir-biriga mos bo'lmagan oilalar.
- 8) Regional jihatlariga ko'ra: shahar, qishloq, aralash tipdagi oilalar.
- 9) Nikohdan qoniqqanlik saviyasiga ko'ra: ajralish arafasida, nikohdan qoniqqanlik darajasi, quyi darajali, o'rta darajali oilalar.
- 10) Oilada er-xotinning munosabatiga ko'ra: avtoritar, demokratik, liberal va aralash tipdagi oilalar.
- 11) Er-xotinning millatiga ko'ra: bir millatli, baynalmilal ya'ni ko'p millatli oilalar. Baynalmilal oilalarni o'z navbatida ikkiga bo'lish mumkin; a) dini, urf odatlari, tili bir guruhga kirgan millat vakillari orasida nikohlar masalan, o'zbek-tojik, o'zbek-qozoq, o'zbek-turkman va h.k. b) dini urf odatlari tili bir guruhga mansub bo'lmagan millat vakillarining o'rtasidagi nikohlar masalan, o'zbek-rus, o'zbek-ukrain, o'zbek-nemis va h.k.

Oilaviy farovonlik omillarini tahlil qilish turli jins, yosh, ijtimoiy va kasbiy mansublikdagi odamlarning psixologik omillarning to'liq ro'yxatini tanlashga urinish muvaffaqiyatsiz bo'lishi mumkinligiga olib keladi. Shu sababli, biz oilaviy farovonlikning eng muhim omillarini quyida sanab o'tishimiz mumkin:

1. Er-xotinlarning (umuman oila a'zolari) psixologik muvofiqligi;
2. Oilani yaratadigan odamlar ehtiyojlar majmuasini qondirishga intilishadi.

Nikohdagi muvaffaqiyatsizlik ko'p jihatdan sherik tanlashda xatolar bilan belgilanadi: tanlangan kishi aslida shaxsiy xususiyatlarga ega emas yoki uning psixofiziologik xususiyatlari, qarashlari va qadriyatlarining uyg'unligi. Er va xotinning tarbiyaning turli siyosiy, madaniy, psixologik qarashlarini aks ettiruvchi biologik va

axloqiy omillar nuqtai nazaridan bir-biriga mos kelishi, juda muhimdir. Oiladagi sog'lom munosabatlarda shaxsning qoniqish darjasiga ham bog'liqdir va bu muayyan darajada oilaning vazifalari bajarilishiga bog'liq.

O'zbek oilasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri oilada yoshi ulug' qariyalar – bobo va buvilarning yuksak mavqe va martabaga egaligi bo'lib, ular hamisha izzat-ikrom qilinadi, barcha masalalarda ular bilan maslahatlashib, so'ng ish boshlashga amal qilinadi. O'zbek oilasiga xos mazkur xarakterli xususiyatlarni alohida e'tirof etib o'tishdan maqsad shuki, "oila tarbiyasi"ning o'ziga xos qirralari ana shundagina to'la-to'kis namoyon bo'ladi. Bu tarbiya jarayonida milliy-madaniy merosning qanday o'rin tutishi, salmog'i, ahamiyati xususida asosliroq fikr yuritish imkoniyati paydo bo'ladi. Jumladan, oilada erning mavqeyi balandligi, ayol ham o'zining haq-huquqlariga egaligi, farzandlarning ota-onani hurmat qilishini olaylik. Ko'p yillar davomida ota-bobolarimiz qalbiga singib ketgan ushbu qadriyatlarni bugun yanada sayqallash kerakligini zamon talab etmoqda. Ayniqsa, shiddat bilan o'zgarib borayotgan hozirgi zamonda bema'ni ta'sirlar ko'payib, ularning inson va jamiyat hayotida salbiy oqibatlari misli ko'rilmagan darajada kuchayib bormoqda. Ayni shu davrda oilaning jamiyatdagi o'rni juda muhimdir. Vatan tuprog'i oiladan boshlanadi. Farzandlarimizning axloqiy qiyofasiga salbiy ta'sir etadigan ba'zi noxushliklarni ota-onalar seza bilmog'i lozim. Farzandlar oilaviy axborot vositalari, matbuot, ilmiy anjuman yangiliklari, badiiy adabiyotlar turlaridan foydalanishlari uchun oilada kerakli shart-sharoit yaratsak, oiladagi muhit yanada yaxshilanadi. Bizningcha, Yangi O'zbekiston barpo etilayotgan hozirgi sharoitda milliy oilaviy qadriyatlarining o'rni har qachongidan ham ortib bormoqda. Xulosa qilib aytganda, milliy va umuminsoniy qadriyatlar jamiyat rivojiga va uning negizi, millatning tarixiy taraqqiyotida erishilgan muvaffaqiyatlarini avloddan avlodga yetkazuvchi qudratli omildir. Shunday ekan, oilada farzandlarimiz bolalik, o'smirlik, balog'at sari borishlarida ibratli dovondan o'tishi uchun farzandlarimizga to'g'ri yo'lni ko'rsatguvchi bir mayoq bo'laylik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.10.2020 yildagi PF-6099-son, "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida"

2. Мусурманова О. Оила жамият таянчи: Монография /О.Мусурманова. – Тошкент: Ёшлар нашриёт уйи, 2019. – Б. 252.

3. G.B. Shoumarov, I.O. Haydarov, N.A. Sog'inov; G'B. Oila psixologiyasi: Akad. litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun darslik T.: «Sharq», 2015. 296 b.;

4. Nafiddinova, K. R. (2021). THE EXPLICATION OF THE FAMILY AND FAMILY CEREMONIES IN THE HISTORICAL LITERATURE. Academic research in educational sciences, 2(3), 174-180.

5. V.M.Karimova. Oila psixologiyasi: Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun // Muallif: - T.: -Fan va texnologiya, 2008. - 170 b.;